



UDK: 821.512.133.09:82.091

Maxliyo UMAROVA,
O'zDJTU professori, f.f.d
E - mail: umarovamakhliyo76@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d H.Jalilova taqrizi asosida

DEVELOPMENT STAGES OF EUROPEAN ENLIGHTENMENT AND JADID LITERATURE

Annotation

This scientific article provides a comprehensive analysis of the development stages of European Enlightenment and Jadid literature, their mutual typological connections, and artistic-educational characteristics. It highlights how enlightenment and ignorance, as fundamental categories of human thought, are manifested in literary texts through systems of characters, conflict, plot, symbols, and linguistic means. The study identifies the aesthetic, philosophical, and social functions of these concepts and evaluates their role in the development of artistic thinking on a scientific-theoretical basis within the context of world and national literature.

Keywords: Enlightenment, Jadid literature, concept, artistic expression, character, conflict, symbol, enlightenment and ignorance, socio-aesthetic thinking.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЕВРОПЕЙСКОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ И ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

В данной научной статье представлен комплексный анализ тенденций развития европейского просвещения и джадидской литературы, их взаимных типологических связей и художественно-просветительских особенностей. Освещается то, как просвещение и невежество, являясь фундаментальными категориями человеческого мышления, проявляются в литературных текстах через систему образов, конфликт, сюжет, символы и лингвистические средства. В исследовании определены эстетические, философские и социальные функции этих концептов, а также на научно-теоретической основе оценена их роль в развитии художественного мышления в контексте мировой и национальной литературы.

Ключевые слова: Просвещение, джадидская литература, концепт, художественное выражение, образ, конфликт, символ, просвещение и невежество, социально-эстетическое мышление.

YEVROPA MA'RIFATCHILIGI VA JADID ADABIYOTINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Yevropa ma'rifatchiligi va jadid adabiyotining rivojlanish tendentsiyalari, ularning o'zaro tipologik aloqalari hamda badiiy-ma'rifiy xususiyatlari kompleks tahlil qilingan. Ma'rifat va jaholat insoniyat tafakkurining fundamental kategoriyalari sifatida badiiy matnlarda obrazlar tizimi, konflikt, syujet, ramz va lisoniy vositalar orqali namoyon bo'lishi yoritilgan. Tadqiqotda ushbu kontseptlarning estetik, falsafiy va ijtimoiy funktsiyalari aniqlangan hamda jahon va milliy adabiyot kontekstida badiiy tafakkur taraqqiyotidagi roli ilmiy-nazariy jihatdan baholangan.

Kalit so'zlar: ma'rifatchilik, jadid adabiyoti, kontsept, badiiy ifoda, obraz, konflikt, ramz, ma'rifat va jaholat, ijtimoiy-estetik tafakkur.

Kirish. O'zbek milliy ensiklopediyasida "ma'rifat" so'zi "tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifat ilm-u urfon ma'nosida ham ishlatilib, u "madaniyat", "ma'naviyat" tushunchalari bilan bog'liq.[1] -deya ta'riflanadi. Adabiyotshunoslikda keng qo'llanilayotgan "ma'rifatchilik" va "ma'rifatparvarlik" tushunchalari ma'rifat atamasining asosiy mazmuniga tayanib shakllangan ilmiy istilohlar hisoblanadi.

Azal-azaldan insonlarning bilim olishi, ma'rifatli bo'lishi yuksak e'tiroflarga loyiq bo'lib kelgan. O'qimishli, dono kishilar qadimdan qadrlangan va hurmat ehtiromga sazovor bo'lishgan. Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorliklarida ham ma'rifat masalalari kuylangan. Bu haqda adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev shunday yozadi: "Ma'rifat orqali insonning har jihatdan komil bo'lib yetishishini ta'minlash masalasi – "Avesto", O'rxun-Enasoy bitiklaridan "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul-haqoyiq" va Yassaviyning "Hikmatlar"igacha – uzoq takomil yo'lini bosib o'tdi. Bunda, ta'bir joiz bo'lsa, ma'rifatparvarlik g'oyasi sof ma'naviy-ruhiy jarayon sifatida islom dini aqidalari bilan birlashib, insonni nafs qulligidan chiqarib, ma'naviy-ruhiy yuksaklikka undadi[2].

Atoqli adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov "ma'rifat" so'ziga ta'rif berganida bu so'z arab tilidan o'zlashgan tasavvuf adabiyotida foydalaniladigan "irfon" "oriflik" so'zlaridan hosil bo'lgan ini alohida e'tirof etadi. Shuni ta'kidlash joizki, "ma'rifatchilik" va "ma'rifatparvarlik" kabi tushunchalarga dastlab bir hodisa sifatida qaralgan. Biroq keyinchalik ushbu terminlar rus adabiyotshunosligi doirasida farqlanib, alohida ilmiy kategoriyalar sifatida talqin qilingan. Xususan, sharqshunos olim N.I.Konradning ma'rifatchilik va ma'rifatparvarlik nisbati xususida ilgari surgan qarashlari ham ahamiyatga molik. Uning yozishicha, ma'rifatchilikning belgilovchi ta'siri ostida ma'rifatparvarlik yuzaga kelishi, boshqacha aytganda, birinchi tushunchaning ikkinchisidan kengligi masalasi ko'pchilikda jiddiy qiziqish uyg'otdi va anchagina tarafdorlarga ega bo'ldi[3]. Shu asosda g'arb ma'rifatchiligi g'oyalari boshqa mintaqa yoki hudud tomonidan qabul qilinganda, u ma'rifatparvarlik shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisalar turli sivilizatsiyalar doirasida qator umumiyliklarga ega bo'lsa-da, har birining o'ziga xos mazmun va taraqqiyot xususiyatlari ham mavjud.

Ma'rifat tushunchasi g'arbda asosan XVII–XVIII asrlarga kelib shakllangan bo'lib, u kapitalistik

munosabatlarning ustunlik qilishi bilan bog'liq madaniy, mafkuraviy va falsafiy jarayonlar sifatida talqin qilingan[4]. Yevropada ma'rifatchilikning asosiy maqsadlari mutlaq diniy ta'limotlarni ilmiy izlanishlar bilan, monarxik boshqaruv tizimini esa vakillik hokimiyati va ratsional yondashuv bilan almashtirishdan iborat edi.

The term Enlightenment has become standard in discussing the progressive and (mostly) secularly minded intellectuals, or philosophes, of eighteenth-century Europe and North America. However, enlightened individuals and movements varied in their opinions of many things, including science, and the Enlightenment should not be treated as a set of dogmas. Science unquestionably played a leading role in Enlightenment thought and culture, although most writers preferred the older term natural philosophy[5]. "Ma'rifatchilik" XVIII asr Yevropa va Shimoliy Amerikasining ilg'or, asosan, dunyoviy fikr yurituvchi ziyolilari hamda faylasuflari qarashlarini ifodalash uchun qo'llanilgan atama hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlardan biri Immanuel Kant ma'rifatchilikni insonning o'z aybi bilan tushib qolgan "go'daklik" holatidan chiqishi deb baholagan bo'lsa[6], zamonaviy tadqiqotchi P.Azar o'zining "Yevropa tafakkuridagi inqiroz" asarida bu davrni an'anaviy dogmalardan ratsionalizmga o'tish bosqichi sifatida tahlil qiladi. Ular ilgari surgan "erk" va "aql ustivorligi" g'oyalari keyinchalik Sharq uyg'onish harakatlari, xususan, jadidchilik uchun intellektual poydevor bo'lib xizmat qilganini[7] ko'rish mumkin.

O'zbek jadidshunosligining yirik vakillari Begali Qosimov[8] va Naim Karimovlarning[9] ilmiy ishlarida jadid adabiyoti shunchaki badiiy hodisa emas, balki ijtimoiy islohot quruli sifatida talqin etiladi. Olimlar Behbudiy, Fitrat va Cho'lpon asarlaridagi ma'rifatparvarlik tendentsiyalarini Yevropa ma'rifatparvarlarining "jamiyatni ta'lim orqali o'zgartirish" konseptsiyasi bilan qiyoslaydilar. Ayniqsa, B. Qosimov jadidlar ijodidagi "millatni uyg'otish" g'oyasini G'arb ma'rifatchiligining Sharqona modernizatsiyalashgan shakli sifatida baholagan.

Adabiyotshunos olim Hamidulla Boltaboyev va xorijlik tadqiqotchi Edvard Allvort asarlarida jadid adabiyotining rivojlanish tendentsiyalari jahon adabiy jarayoni kontekstida tahlil qilinadi. E.Allvort jadidchilikni "Markaziy Osiyoning madaniy renessansi" deb atasa, H.Boltaboyev jadid adabiyotining poetik qatlamlarini va uning mumtoz adabiyotdan modernizmga o'tish pallasidagi metodologik burilishlarini ochib beradi[10]. Olim jadidlar ijodini jahon adabiyotidagi ma'rifatparvarlik realizmi va romantizm oqimlari bilan qiyoslab, ularning Sharq va G'arb badiiy tafakkurini sintez qilganini isbotlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot zamonaviy adabiyotshunoslik va qiyosiy ma'rifatshunoslikda keng qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlarga asoslangan. Yevropa ma'rifatchiligi va jadid adabiyoti o'rtasidagi aloqadorlik, rivojlanish tendentsiyalari murakkab konsept va ko'p qatlamli hodisa bo'lgani uchun ularni tahlil qilishda integrativ va tizimli metodologik yondashuv tanlandi.

Ushbu tadqiqot uchun birinchi bo'lib konseptual tahlil metodi qo'llanildi. Bu metod orqali "ma'rifat", "hurriyat" va "ijtimoiy islohot" tushunchalarining falsafiy, estetik va axloqiy mazmuni aniqlandi. Konseptual tahlil Yevropa va Turkiston uyg'onish davri badiiy matnlarida ushbu tushunchalarning qanday g'oyaviy qatlamlarda namoyon bo'lishini ochib berishga xizmat qildi.

Ikkinchi asosiy usul qiyosiy-tarixiy tahlil edi. Bu usul yordamida XVIII asr Yevropa ma'rifatparvarlik adabiyoti va XX asr boshidagi jadid adabiyoti an'alaridagi rivojlanish tendentsiyalari qiyoslandi. Qiyosiy yondashuv G'arb va Sharq

ma'rifatchiligi o'rtasidagi tipologik umumiyliklar hamda milliy-madaniy tafovutlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda tarkibiy-semantik tahlil usuli ham muhim o'rin tutdi. Bu metod ma'rifatparvarlik g'oyalarini ifodalashda obrazlar tizimi, janrlar transformatsiyasi (ayniqsa, drama va publitsistika) hamda konfliktning funksional rolini aniqlashga qaratildi. Badiiy til vositalari – ramz, metafora va didaktik timsollarning semantik yuki alohida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari adabiyotdagi ma'rifat (taraqqiyot) va jaholat (qoloqlik) kontseptlari ko'p bosqichli, murakkab va tizimli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu tushunchalar ma'rifatparvarlik adabiyotida alohida elementlar sifatida shakllanmaydi, balki uning umumiy g'oyaviy-estetik tuzilishi bilan uzviy bog'lanib, matnning barcha qatlamlarida faol ishtirok etadi. Shu munosabat bilan ma'rifat va jaholat ziddiyatini nafaqat syujet darajasida, balki obrazlar tizimi, konflikt, ramziy ifoda, til va kompozitsion vositalar orqali ham tahlil qilish zarurligi belgilandi.

Eng avvalo, ma'rifat va jaholat obrazlar tizimida mujassamlashgan. An'anaviy didaktik adabiyotda ijobiy (olim/fozil) va salbiy (johil/mutaassib) qahramonlar chegarasi aniq bo'lgan. Biroq jadid adabiyotida bu chegaralar nisbiylashgan va murakkab, ichki ziddiyatli obrazlar shakllangan. Natijada bir qahramon timsolida ham eski aqidalar, ham yangicha dunyoqarash unsurlari bir vaqtda bo'lishi mumkinligi (masalan, jadid dramalaridagi ikkilanayotgan obrazlar) kuzatiladi. Bu holat inson tabiatining murakkabligini, ijtimoiy tanlov va milliy mas'uliyat muammosini chuqurroq ochib beradi. Ma'rifat va jaholat o'rtasidagi murakkab munosabatlar qahramonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari va qaror qabul qilish jarayonida badiiy ifodasini topadi.

Ma'rifat va jaholat badiiy konfliktning asosiy manbai sifatida ham namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu tushunchalarni ochishda ichki va tashqi ziddiyatlar muhim rol o'ynaydi. Ichki ziddiyat qahramonning o'z o'tmishi, axloqiy ikkilanishlari va ma'naviy uyg'onish jarayoni orqali namoyon bo'ladi. Tashqi ziddiyat esa yangi usul maktablari tarafdorlari va qadimchilar, shaxs va jamiyat, inson va mustabid tuzum o'rtasidagi ziddiyatlardan kelib chiqadi. Shunday qilib, ma'rifat va jaholat o'rtasidagi kurash jadid asarlarining dramatik asosini tashkil etadi va syujet rivojiga turtki bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ma'rifat va jaholat tushunchalari jadid adabiy matnining barcha darajalarida – obraz, konflikt, timsol, til va syujet tizimida faol va uzviy tarzda namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

Munozara. Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyoslanganda, ma'rifat va jaholat tushunchalarining badiiy talqini har bir davr adabiyotida ijtimoiy ehtiyojlar va madaniy kontekst bilan uzviy bog'liq holda shakllanganligi ma'lum bo'ldi. Klassik adabiyotda ma'rifat va ezgulik ko'pincha mutlaq qadriyat sifatida talqin qilinadi va insonning axloqiy ideali, ma'naviy barkamolligi ramzi sifatida tasvirlanadi. Bu davr asarlarida ijobiy (olim) va salbiy (johil) qahramonlarning chegarasi aniq, ilm va nodonlik keskin qarama-qarshi qo'yilgan. Ijobiy qahramon ruhiy kamolotning namunasi bo'lsa, jaholat tashqi tahdid, adolatsizlik yoki turg'unlik orqali ifodalangan.

Jadid adabiyotida esa ma'rifat tushunchasi nisbiylashgan va murakkab talqinga ega. Bu davrda ma'rifat nafaqat bilim olish, balki siyosiy uyg'onish, milliy ozodlik va shaxsiy mas'uliyat bilan birga tasvirlangan. Qahramonning ichki dunyosi, an'anaviy turmush tarzi va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi ruhiy iztiroblari, axloqiy ikkilanishlari markaziy o'rinni egallaydi. Natijada, ma'rifat nafaqat ijobiy xulq-atvor,

balki qahramonning eskicha dunyoqarashdan voz kechish va ma'naviy yangilanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi (masalan, Fitrat yoki Cho'lpon qahramonlarida). Bunday yondashuv o'quvchiga inson tafakkurining transformatsiyalashuv jarayonini va axloqiy qarorlar qabul qilishdagi qiyinchiliklarni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Jaholat tushunchasi jadid adabiyotida ham an'anaviy tashqi kuch (shunchaki o'qimaslik) sifatida emas, balki inson ongidagi inqiroz, begonalashuv, mutaassiblik va ijtimoiy ziddiyatlar natijasida talqin etiladi. Jaholat manbai sifatida qahramonning yangilikdan qo'rqishi, o'tmish asoratlari yoki ijtimoiy turg'unlik namoyon bo'ladi. Shuning uchun ma'rifat va jaholat chegaralari ko'pincha xiralashadi qahramon bir vaqtning o'zida ham ilmi, ham millat taqdiriga befarq bo'lishi yoki aksincha holatlar aralash tarzda namoyon bo'lishi mumkin.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bu tushunchalarni ifodalashda ramziy va metaforik vositalar muhim o'rin tutadi. Nur (ziyo) va zulmat, uyg'onish va mudroqlik, hurriyat va qush qafasi kabi ramziy qarama-qarshiliklar orqali qahramonning

ichki holati, axloqiy pozitsiyasi badiiy jihatdan chuqurlashadi. Ranglar va fazoviy obrazlar (masalan, tor hujra va keng dunyo) semantikasi asarning g'oyaviy mazmunini boyitadi.

Xulosa va takliflar. Bu tadqiqot adabiyotda ma'rifat va jaholat tushunchalarining badiiy ifodasi tizimli va murakkab ekanligini ko'rsatdi. Bu tushunchalar badiiy matnning barcha sathlarida – obraz, konflikt, timsol, syujet va til orqali ajralmas tarzda namoyon bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik mazmunini belgilaydi. Ular personajlarning ichki dunyosi, milliy uyg'onish va axloqiy tanlovlarini ochib berishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, konseptual tahlil metodologiyasi ma'rifatchilik tendentsiyalarini tizimli o'rganishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Bunday yondashuv ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi bilan birga, oliy o'quv yurtlarida "Adabiyotshunoslik metodologiyasi" va "Jadid adabiyoti tarixi" fanlarini o'qitishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ma'rifat va jaholat kontseptlari adabiyotning estetik, g'oyaviy, tarbiyaviy vazifalarini yoritishda markaziy o'rin tutadi va zamonaviy milliy qadriyatlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Allworth, E.A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 410 p.
2. Sultonov, I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.
3. William E. Burns. Science in the Enlightenment an Encyclopedia.- California: Santa Barbara, 2003.- P.92
4. Азар, П. Кризис европейского сознания (1680-1715) / П. Азар; [пер. с фр. Н.Т. Пахсарьян]. – М.: Центр гуманитарных инициатив, 2017. – 368 с.
5. Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 286 б.
6. Болтабоев Х. Адабиёт энциклопедияси. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2015. – 664 б.
7. Кант, И. Ответ на вопрос: Что такое Просвещение? // Собрание сочинений в 8-ми т. – М.: Чоро, 1994. – Т. 8. – С. 29–37.
8. Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2019. – 423 б.
9. Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и театр. М.: Наука. 1978. С.13.
10. Ризаев Ш.Маърифатпарварликдан маърифатчиликкача // Тафаккур. 1995. 1-сон. - Б.74
11. Хализев Е.В. Драма как род литературы (поэтика, генезис, функционирование). – М.: Из-во МГУ, 1986. – 260 с.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.- Тошкент: Давлат илмий нашриёти. - Б.336
13. Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004
14. <http://forum.oyina.uz/uz/teahause/1942> [Murojaat sanasi: 12.03.2026].